HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research
(HSR-ICMAR) 2026
https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference

NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Jumaboyev Farrux Madaminovich
Urganch innovatsion universiteti rektori maslahatchisi
e-mail: jumaboyevfarruh47@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21785399

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish zarurligi, mavjud imkoniyatlari va amalga oshirish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish yuzasidan xulosa keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость развития деятельности негосударственных высших учебных заведений, их текущие возможности и особенности реализации. Также делаются выводы о развитии деятельности негосударственных высших учебных заведений.

Abstract. This article discusses the need to develop the activities of non-state higher education institutions, their current capabilities and implementation features. Also, a conclusion is made on the development of the activities of non-state higher education institutions.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, nodavlat oliy ta’lim, nodavlat oliy ta’lim muassasalari, faoliyat, boshqaruv, hamkorlik.

Ключевые слова. Образование, негосударственное высшее образование, негосударственные высшие учебные заведения, деятельность, управление, сотрудничество.

Key words. Education, non-state higher education, non-state higher education institutions, activities, management, cooperation.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida islohotlar chuqurlashib, nodavlat oliy ta’lim muassasalarining roli ortib bormoqda. Chunki, nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati davlat tasarrufidan tashqari bo‘lgan ta’lim tashkilotlari tomonidan oliy ma’lumot berish, mutaxassis kadrlar tayyorlash va ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirishga qaratiladi.

Ushbu muassasalar ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va mehnat bozori talablariga tez moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ular faoliyatini samarali rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bu borada nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlarida raqobat muhitini shakllantiradi, innovatsion o‘qitish texnologiyalarini tez joriy qiladi, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlaydi va davlat ta’lim tizimiga yuklamani kamaytiradi. Ushbu muassasalarning samarali faoliyati esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish ta’lim bozori talablariga tez moslashishi, innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etishi va moliyaviy mustaqillik asosida raqobatbardoshlikni ta’minlashga qaratiladi [1]. Unga asosan, nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlanishining eng muhim omili ta’lim sifati bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish, xalqaro standartlarga mos ta’lim berish, professor-o‘qituvchilar salohiyatini oshirish va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish zarur. Hamda nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini samarali rivojlantirish ularda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini

joriy etish, ta’lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta’minlash va raqobatbardosh ta’lim muhitini shakllantirish orqali amalga oshiriladi [2].

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatida raqamli ta’lim platformalari va texnologiyalardan foydalanish uchun onlayn ta’lim tizimlarini kengaytirish, masofaviy ta’limni rivojlantirish, sun’iy intellekt va raqamli instrumentlarni joriy etish va elektron kutubxonalarni shakllantirish talab etiladi. Bu borada nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish va innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etishga harakat qiladilar [3]. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari moliyaviy mustaqillikka ega bo‘lgani uchun diversifikatsiyalangan daromad manbalarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish va grant va xalqaro loyihalarda ishtirok etish lozim. Ayniqsa, xalqaro aloqalar nodavlat oliy ta’lim muassasalari rivojida muhim o‘rin tutib, xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar, akademik mobillik, xalqaro reytinglarda ishtirok qilish va ikki diplomli ta’lim kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatida samarali boshqaruv barqaror rivojlanish garovi bo‘lib namoyon bo‘ladi. Buning uchun strategik rejalashtirishni joriy etish, korporativ boshqaruv modellaridan foydalanish, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini qo‘llash va ta’lim sifatini baholash mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Ushbu ta’lim muassasalarida kadrlar sifatini oshirish esa professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, xorijda malaka oshirish, ilmiy tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va yosh mutaxassislarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’lim va ilm-fan markazi bo‘lishi lozim. Bu borada startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, biznes va ta’lim integratsiyasini ta’minlash va innovatsion ekotizim yaratish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur muassasalarda ta’lim va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash borasida ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish, dual ta’lim tizimini shakllantirish, stajirovkalar tashkil etish va bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa shuki, nodavlat oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim qismi bo‘lib hisoblanadi. Ta’lim sifati, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va samarali boshqaruv orqali ushbu muassasalar raqobatbardosh va barqaror tizimga aylanishi mumkin. Bu borada ushbu muassasalarni qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, iqtisodiy o‘sish va ta’lim maydonida o‘rin egallash imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank, Private Higher Education: Global Trends and Issues. Washington, DC: World Bank Publications, 2019, Analytical Report. - p. 27.
2. Hamraev Q.X. Oliy ta’lim iqtisodiyoti. Darslik. -T.:Iqtisodiyot, 2021. - 85 b.
3. Altbach Philip G., Private Higher Education: A Global Revolution. Monograph. - Rotterdam: Sense Publishers, 2016. - p. 62.